

FUQAROLIK HUQUQIY JAVOBGARLIKNING ELEKTRON TIJORATDAGI O'RNI VA XUSUSIYATLARI

Adizova Nargiza Parda qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada elektron tijoratda fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutining nazariy va amaliy asoslari keng yoritilgan bo'lib, ayniqsa, uning huquqiy tizimdagi o'rni, funksiyalari va asosiy elementlari tahlil etiladi. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik – bu huquqbuzar tomonidan boshqa shaxsga yetkazilgan zarar uchun qo'llaniladigan, asosan mulkiy xarakterga ega bo'lgan yuridik javobgarlik shaklidir. U shaxsni zararlarni qoplash yoki yangi majburiyatlarni bajarishga majbur qiladi. Maqolada javobgarlikning asosiy tarkibiy elementlari – huquqqa zid xatti-harakat (yoki harakatsizlik), zarar yetkazilishi, sababiy bog'lanish va ayb (ayrim holatlarda aybsizlik) – konseptual jihatdan tahlil qilinadi. Har bir element misollar bilan izohlangan hamda ularning mavjud emasligi holatida javobgarlik yuzaga kelmasligi asoslab berilgan. Shuningdek, shartnomaviy va delikt (shartnomaviy bo'lmagan) javobgarlik turlari o'rtasidagi huquqiy farqlar ochib berilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi normalari asosida javobgarlikning huquqiy mezonlari, qarzdorning aybini isbotlash majburiyati va aybsiz javobgarlik holatlari (masalan, oshirilgan xavf manbasi) yoritilgan. Shuningdek, maqolada Yevropa va Anglo-sakson huquqiy tizimlarida (jumladan AQSh va Buyuk Britaniya) fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutining o'rganilishi, sud pretsedentlari, tort huquqi (tort law) doirasidagi yondashuvlar va zararlarni qoplash mexanizmlari qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, elektron tijorat ishtirokchilari, fuqarolik huquqiy javobgarlik, ayb, huquqqa zid harakat, zarar, boy berilgan foyda.

THE PLACE AND FEATURES OF CIVIL LEGAL LIABILITY IN ELECTRONIC COMMERCE

Adizova Nargiza Parda qizi

Master's student at Tashkent State University of Law

Abstract: *this article broadly covers the theoretical and practical foundations of the institution of civil legal liability in electronic commerce, in particular, its place in the legal system, functions and main elements are analyzed. Civil legal liability is a form of legal liability, mainly of a property nature, applied for damage caused by an offender to another person. It obliges a person to compensate for damage or fulfill new obligations. The article analyzes the main structural elements of liability - unlawful action (or inaction), causing damage, causal connection and fault (in some cases, innocence) - conceptually. Each element is explained with examples and the absence of liability is justified. The legal differences between contractual and tort (non-contractual) types of liability are also revealed. The legal criteria for liability, the debtor's obligation to prove guilt and cases of no-fault liability (for example, an increased source of risk) are covered on the basis of the norms of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan. The article also studies the institution of civil liability in European and Anglo-Saxon legal systems (including the USA and Great Britain), comparative studies of judicial precedents, approaches within the framework of tort law and mechanisms for compensation for damages are provided.*

Keywords: *e-commerce, e-commerce participants, civil liability, guilt, unlawful act, damage, lost profits.*

“Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunning

3-moddasiga ko'ra, elektron tijoratning subyektlari — elektron tijorat ishtirokchilari va (yoki) elektron tijorat operatorlaridan iborat. Elektron tijorat ishtirokchilariga sotuvchi va xaridor kiradi. Ularning huquqiy maqomi va huquq va majburiyatlari qonunda alohida tartibga solingan. Ma'lumki fuqarolik huquqiy javobgarlik javobgarlikning boshqa turlari kabi jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi. Yuridik shaxslarga ega tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi, davlat ro'yxatidan o'tgan, alohida mulkka ega bo'lgan shaxslar kiradi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik huquqiy tizimda fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning muhim vositasidir. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik yuridik javobgarlikning alohida shakli bo'lib, huquqbuzarga nisbatan sanksiya sifatida qo'llanilib, uni qo'shimcha moliyaviy xarajatlar qilishga yoki yangi majburiyatlarni ado etishga majbur qiladi. Huquqiy javobgarlikning boshqa turlaridan farqli o'laroq, fuqarolik-huquqiy javobgarlik o'zining mulkiy xarakteri va tiklovchi funksiyasi bilan ajralib turadi. Ya'ni fuqarolik-huquqiy javobgarlik bevosita huquqbuzar mulkiga qaratilgan va jabrlanuvchining mulkiy huquqlarini tiklashga yo'naltirilgan choralar tizimidir.

Javobgarlikning mulkiy xususiyati to'liq mulkiy kompensatsiya tamoyiliga asoslanishi, zarar miqdori aniq hisoblanishi va pul bilan ifodalanishi, javobgarlik huquqbuzarning shaxsiy mulki hisobidan amalga oshirilishi hamda mulkiy javobgarlikning shartnomaviy va qonuniy asoslarda belgilanishi bilan namoyon bo'ladi.

Tiklovchi funksiya esa huquqbuzarlik natijasida buzilgan mulkiy huquq va manfaatlarni tiklashga, jabrlanuvchining mulkiy holatini huquqbuzarlik sodir etilishidan oldingi holatga qaytarishga qaratilgan funksiya sanaladi. Javobgarlikning tiklovchi funksiyasi orqali fuqarolik muomalasi barqarorligi ta'minlanadi¹.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik boshqa javobgarlik turlarida bo'lgani kabi ma'lum asoslar va shartlar mavjud bo'lgandagina qo'llaniladi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida fuqarolik-huquqiy javobgarlik quyidagi asosiy omillarga tayanadi:

1. Huquqqa zid xatti-harakat yoki harakatsizlik – bu shaxs tomonidan qonunlar, shartnomalar yoki huquqiy me'yorlarga zid tarzda harakat qilishi yoki kerakli harakatni bajarmasligi holatidir. Bu harakat ikki shaklda namoyon bo'ladi:

- Faol harakat – shaxs qilmasligi lozim bo'lgan ishni qiladi;
- Harakatsizlik – shaxs bajarishi shart bo'lgan vazifani bajarmaydi.

Bu xulq-atvor quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: huquqiy normalarga zid bo'lishi, boshqa shaxslarning qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazishi, aniq bir shaxsga qarshi yo'naltirilgan bo'lishi va huquqiy faktlar bilan tasdiqlanishi. G'ayriqonuniy xatti-harakat quyidagi shakllarda sodir bo'lishi mumkin:

- shartnoma shartlariga rioya qilmaslik;
- mulk huquqi kabi mutlaq huquqlarni buzish;
- delikt orqali zarar yetkazish.

¹ <https://yuristpro.uz/fuqarolik-huquqiy-javobgarlik-asoslari-va-shartlari/>.

Misol: “A” korxonasi “B” bilan tuzilgan yetkazib berish shartnomasiga ko‘ra o‘z majburiyatini vaqtida bajarmaydi. Bu holat huquqqa zid harakatsizlikka misol bo‘la oladi.

2. Zarar yetkazilishi – bu shaxsning moliyaviy ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi natijadir. Zararning quyidagi xususiyatlari mavjud:

- aniq va real bo‘lishi;
- pulda ifodalanishi mumkinligi;
- qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarga putur yetkazilishi;
- isbotlash imkoniyatining mavjudligi.
- Zarar ikki turga bo‘linadi (Fuqarolik kodeksi 14-moddasi²):
- Haqiqiy zarar – mulkning yo‘q qilinishi yoki shikastlanishi;
- Boy berilgan foyda – aslida olinishi mumkin bo‘lgan, lekin olinmay

qolgan daromadlar.

Misol: “B” kompaniyasi mahsulot o‘z vaqtida yetkazilmagani sababli boshqa yetkazib beruvchidan qimmatroqqa mahsulot sotib olishga majbur bo‘ladi (haqiqiy zarar), va o‘z mahsulotlarini ishlab chiqarib sotishdan ko‘rishi mumkin bo‘lgan foydani boy beradi (boy berilgan foyda).

Shartnomani buzish natijasida ko‘rilgan zarar, odatda, da’vogarga uning buzilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplatish uchun mo‘ljallangan. Shartnomani buzish oqibatida ko‘rilgan zarar to‘g‘risidagi sud qarorining maqsadi, da’vogarning mulkiy holatini avvalgi ya’ni shartnoma buzilishidan oldingi holatga keltirishdir. Ingliz huquqida zararni hisoblashning huquqiy asoslari shundan iboratki, qarzidor da’vogarning shartnomani bajarishga tayorgarlik

² O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. O‘zbekiston qonunchiligi milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-111189>.

ko‘rishda va uning buzilishi sababli foydasiz bo‘lib qolgan har qanday xarajatlarni qoplashi kerak³.

3. Sababiy bog‘lanish – bu huquqqa xilof xatti-harakat bilan yetkazilgan zarar o‘rtasida mavjud bo‘lgan bevosita va zaruriy aloqa. Bu bog‘lanish quyidagi shartlarga mos kelishi kerak:

- huquqbuzarlik zarardan oldin sodir etilgan bo‘lishi;
- aynan shu harakat zarar yetkazilishining bevosita sababi bo‘lishi;
- natija zaruriy va muqarrar tarzda sodir bo‘lishi.

Misol: “A” MChJ xavfsizlik qoidalarini xodimlariga tushuntirmaydi. Natijada, xodim “F” ishlab chiqarishda jarohat oladi. Bu yerda sababiy bog‘liqlik mavjud, chunki huquqqa xilof harakatsizlik – xavfsizlikni o‘rgatmaslik – to‘g‘ridan-to‘g‘ri zararli oqibatga olib kelgan.

4. Ayb – bu shaxsning o‘z harakati yoki harakatsizligi hamda uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabatidir. Ayb ikki asosiy ko‘rinishda bo‘ladi:

Qasd – shaxs o‘z harakatining noqonuniy va zararli oqibatlarini bilgan holda ataylab sodir etadi;

Ehtiyotsizlik – shaxs ehtimoliy zararli oqibatlarni bilsa-da, ulardan qochish mumkinligiga ishongan holda yoki ularga beparvo bo‘lib harakat qiladi.

Misol uchun, “A” shaxs ataylab “B”ning mashinasini buzib, uning ehtiyot qismlarini o‘g‘irlyadi — bu qasd shaklidagi ayb hisoblanadi.

³ D.B.Imomniyozov va G.Sh.Atalikova. Ingliz va milliy huquqimizda shartnomaviy javobgarlikning asoslari. Ilmiy maqola. 2022-y. <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-va-milliy-huquqimizda-shartnomaviy-javobgarlikning-asoslari>.

Haydovchi “D” yuqori tezlikda harakatlanib, YTH xavfini bila turib, unga yo‘l qo‘yadi — bu ehtiyotsizlikdir.

Ba’zi holatlarda qonunchilik aybsiz javobgarlikni ham nazarda tutadi. Masalan, oshiqcha xavf manbai orqali yetkazilgan zarar uchun shaxs aybdor bo‘lmasa-da, javobgar hisoblanadi (FK 999-moddasi⁴).

Olimlarning ta’kidlashicha, ushbu elementlardan birining yo‘qligi javobgarlikni yuzaga keltirmasligi mumkin.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosiy turlari ikki guruhga bo‘linadi:

Shartnomaviy javobgarlik: majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi natijasida yuzaga keladi. Bunda javobgarlik shartnoma shartlariga, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Shartnomaviy bo‘lmagan (delikt) javobgarlik: Shartnoma munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan, boshqa shaxsga yetkazilgan zarar natijasida yuzaga keladi (masalan, mulkka zarar yetkazish, sog‘liqqa ziyon yetkazish). Shartnomaviy javobgarlik majburiyat huquqi qoidalar bilan tartibga solinsa, shartnomaviy bo‘lmagan javobgarlik – delikt javobgarlik alohida qoidalar bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 333-moddasida qarzdor aybi bo‘lgan holatda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javob berishi belgilangan. Shartnomaviy javobgarlikda qarzdor va kreditorning huquq va majburiyatlari shartomadan, qonundan yoki ish muomalasi odatlaridan kelib chiqib belgilanadi. FKning 333-moddasida qarzdor aybsizligining alomatlari sifatida qarzdor tomonidan majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarni ko‘rganligi keltiriladi. Biroq, bunday

⁴ O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. O‘zbekiston qonunchiligi milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-111189>.

choralarning hech bo'lmasa umumiy me'zonlari belgilab berilmagan. Aytish mumkinki, bunday chora-tadbirlar qatoriga har bir muayyan holatdan kelib chiqqan holda qarzdor tomonidan majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o'z ixtiyorida va imkoniyatida bo'lgan barcha jonkuyarlik va ehtiyot choralarining ko'rilishini, ana shu jonkuyarlik va ehtiyot choralarining majburiyatning xususiyatiga va shartnoma shartlariga mos ekanligi anglashiladi⁵.

Yevropalik huquqshunos G. von Savigny ta'kidlaganidek: "Zarar yetkazish institutining rivojlanishi, avvalo, huquqiy barqarorlikni ta'minlash va shaxslararo munosabatlarda adolatni mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi"⁶. Anglo-sakson huquqiy tizimi (AQSh va Buyuk Britaniya) huquqida zarar yetkazish tort law doirasida tartibga solinadi. Ushbu tizimda sud pretsedentlari muhim rol o'ynaydi. AQSh sud amaliyotida zarar yetkazish quyidagi holatlar bo'yicha ko'rib chiqiladi: Negligence (ehtiyotsizlik natijasida zarar yetkazish) – shaxs o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki ehtiyotsizlik bilan harakat qilib, boshqalarga zarar yetkazgan bo'lsa. Strict liability (aybsiz javobgarlik) – ayrim holatlarda shaxsning aybi aniqlanmagan bo'lsa ham, zarar qoplanishi lozim. Huquqshunos R. Posner shunday yozgan: "Zarar yetkazish institutining asosiy maqsadi – jabrlanuvchining huquqlarini to'liq tiklash va uning yo'qotishlarini qoplashdir"⁷.

Jinoyat qonunchiligidan farqli o'laroq, fuqarolik qonunchiligi huquqbuzarning aybdorligi prezumpsiyasidan kelib chiqadi, ya'ni uning aybdorligi ehtimol tutiladi. Shu munosabat bilan qarzdor javobgarlikdan ozod bo'lish uchun,

⁵ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: «Vektor-Press», 2010. – 726- b. – (Professional (malakali) sharhlar).

⁶ Savigny, G. von. "Zarar yetkazish huquqining tamoyillari". Berlin, 2019.

⁷ Posner, R. "Economic Analysis of Law". Harvard, 2016.

aybning yoʻqligini isbotlashi talab etiladi. Isbotlash majburiyati taraflarning oʻziga yuklatiladi.

Fuqarolik huquqy javobgarlikning har ikkala turi ham elektron tijoratda yuzaga kelishi mumkin. Elektron tijoratdagi fuqarolik huquqiy javobgarlik masalalarining oʻziga xosligi shartnomalarning elektron shaklda, elektron tijorat operatori tomonidan yaratilgan savdo maydonchasida tuzilishi bilan bogʻliq. Lekin alohida jihatlarni hisobga olmaganda, anʼanaviy tijoratdagi javobgarlik bilan bir xil tartibda va bir xil qoidalar asosida Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi. Fuqarolik huquqiy javobgarlikning kelib chiqish asoslari ham bir xil mazmunga ega. Elektron tijoratdagi qoʻshimcha subyekt yaʼni elektron tijorat operatorining javobgarligi masalasida qonunchilikda aniq normalarning yoʻqligi operatorlarning javobgarlik chegaralarining aniq belgilanmaganligi amaliyotda bir qancha muammolarga olib kelishi mumkin. Qonunda elektron tijorat subyektlarining elektron tijorat operatoriga topshirilayotgan elektron hujjatlarining va elektron xabarlarining mazmuni bilan bogʻliq boʻlgan huquqiy oqibatlar uchun elektron tijorat operatori javobgar boʻlmasligi belgilangan. Lekin maʼlumotlar xavfsizligi, yolgʻon reklama va firibgarlik holatlarida operatorning javobgarligi belgilanmagan. Xitoy qonunchiligi onlayn platformalarning javobgarligini belgilashda differensial (farqlangan) yondashuvni qoʻllagan. “Elektron tijorat toʻgʻrisida”gi qonunda platforma platformada faoliyat yurituvchi subyekt tomonidan huquqbuzarlik sodir etilganini bilgan yoki bilishi kerak boʻlgan holatda zarur choralarni koʻrmagan boʻlsa, u boshqa tomonlar bilan birgalikda va toʻliq javobgar boʻlishi belgilangan. Bu holat ayb asosidagi javobgarlik prinsipini ifodalaydi. Biroq, isteʼmolchilarning shaxsiy maʼlumotlarini himoya qilish

sohasida, agar platforma ma'lumotlar sizib chiqishi natijasida zarar yetkazgan bo'lsa, unga aybsiz (to'g'ridan-to'g'ri) javobgarlik prinsipi tatbiq etilishi mumkin. Bu farqlangan yondashuv iste'molchilar huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan birga, platformalarning rivojlanish ehtiyojlarini ham hisobga oladi. Ushbu yondashuvni O'zbekiston qonunchiligiga ham tatbiq etish taklif etiladi. Ushbu qoidani belgilash orqali iste'molchilar huquqlarini kuchliroq himoya qilish hamda nizolarni oldini olish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. O'zbekiston qonunchiligi milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-111189>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-yil., 03/22/792/0870-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: "Vektor-Press", 2010. – 726- b. – (Professional (malakali) sharhlar).
4. Savigny, G. von. "Zarar yetkazish huquqining tamoyillari". Berlin, 2019.
5. Posner, R. "Economic Analysis of Law". Harvard, 2016.
6. D.B.Imomniyozov va G.Sh.Atalikova. Ingliz va milliy huquqimizda shartnomaviy javobgarlikning asoslari. Ilmiy maqola. 2022-y. <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-va-milliy-huquqimizda-shartnomaviy-javobgarlikning-asoslari>.

7. <https://yuristpro.uz/fuqarolik-huquqiy-javobgarlik-asoslari-va-shartlari/>.